

MUSIQIY IDROKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Kukanova Charos Ne'matovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada yosh-avlodni manaviy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy sifatlarini musiqiy faoliyatlarning ahamiyati hamda musiqa tinglash faoliyati idroki etish orqali estetik didni shakllantirishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: musiqiy faoliyatlar, tinglash, idrok etish, o'quvchilar, psixologiya, axloqiy, tarbiyaviy, maktab, ta'lim.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh-avlodning ma'naviy – ahloqiy kamolotini yuksaltirish borasida boshlangan ishlarni izchil davom ettirish, uning ko'lamini yanada kengaytirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan yuritilayotgan oqilona siyosat, ayniqsa, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, umuman respublikada ma'rifiy-ma'naviy, sport sohasiga berilayotgan e'tibor buning yaqqol dalilidir. Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan shu yo'nalishdagi dasturiy xujjatlarda xalqimizning o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan an'analari, urf-odatlarini tiklash va ularni yangi zamon ruhi bilan boyitish va eng asosiysi ularni yoshlar ongi, tafakkuri singdirish, ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini barcha bo'qinlarda yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli tadbiiq etish sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar, pedagog-tarbiyachilar zimmasiga tushadi. Shunday ekan, birinchi navbatda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarni yuqori malakali, zamonaviy va jahon ilm-fani ilg'or tajribalaridan boxabar, innovasion va axborot texnologiyalaridan chuqur bilim va malakaga ega qilib tarbiyalash eng dolzarb vazifa sanaladi. Zamonaviy ta'lim muassasalariga yuksak pedagogik mahoratga va bola psixologiyasidan chuqur bilimga ega mutaxassis o'qituvchi va tarbiyachilar zarur.

Pedagogik va psixologik mahorat bu - ta'lim-tarbiya ishlarining barcha ko'rinishlarini optimallashtirish, komil inson tarbiyasini har tomonlama takomillashtirish, jamiyatda ijtimoiy-ma'rifiy teran dunyoqarashni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisning mehnat faoliyati uchun o'z qobiliyat va iqtidorlarini takomillashtirish usullari majmuidir.

Musiqiy ta'limning mazmunini belgilash uning bir qator psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish talab etiladi. Bu xususiyatlar tarkibida musiqiy idrok xususiyatlari ham sintezlashgan holda namoyon bo'ladi. Musiqiy bilimlarni egallash avvalo shaxsning ruhiy olami bilan bog'liq bo'lib, bu o'zida psixologik fani o'rganadigan bilimlar jumlasiga kiradi. Psixolog olim B.M.Teplov bu jarayonda quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tadi:

1. Musiqiy kechinmalar tabiatdan olingan kechinmalardir... musiqani tushunish, idrok etish, agarda musiqiy asarning ichki tuzilishini nazarda

tutmaganda doimiy his-hayajon, badiiy emosional kechinmalarni his etish bilan bog'liq tushunchadir.

2. Musiqiy kechinmalar faqatgina his hayajon natijasi emas, u his-hayajon, emosional hissiyotdan boshlanadi. Lekin shu bilan tugab qolmaydi. Hissiy tuyg'ular orqali biz musiqada ifodalangan voqiylik, obrazlar mohiyati, bir so'z bilan aytganda hayotni anglaymiz. Shu ma'noda musiqa dunyoni his-tuyg'ular orqali anglatuvchi muhim vositadir.

3. Musiqaning asl mazmunini anglash shaxsning musiqiy tayyorgarligi, didi, estetik ongi, tafakkuri, musiqiy madaniyatini shakllantirish kabi ko'plab omillarga bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda musiqani asl mazmunini chuqur va tugal anglash ham hissiy va hatto mumkin emas. Musiqani mukammal holda tushunish va bilishda boshqa vositalar ham muayyan ahamiyat kasb etishini inkor etmaslik kerak.

B.M.Teplovning bunday nuqtai-nazari insonning estetik ongi shakllanishini ilk o'rganuvchisi sifatida tan olingan buyuk olim Arastuning fikri bilan hamohangdir. "Paydo bo'lgan narsalarning biri oddiy yo'l bilan paydo bo'lsa, boshqasi san'at orqali yuzaga keladi, uchinchi o'z-o'zidan yaraladi.... San'at orqali inson ruhidagi mavjud bo'lgan narsalarga Arastu quyidagilarni kiritadi", "O'sish qobiliyati", "intilish qobiliyati", "his qilish qobiliyati", "harakatlanish qobiliyati", "fikrlash qobiliyati".

"Shaxsning musiqiy madaniyatini" shakllantirish tushunchasiga

A.N.Soxor o'z tadqiqiy izlanishlarida quyidagi jadval asosida yondashadi:

Shaxsning musiqiy madaniyati (A.N.Soxor konsepsiyasi)

Musiqiy qadriyatlar	Faoliyatining barcha turlari	Faoliyat subyektlari	Maxsus muassasalar
Jamoada yaralgan va saqlanadigan	Qadriyatlar yaratish, asrash va targ'ib qilishga qaratilgan.	Ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar	Ushbu faoliyatni ta'minlovchi

Shaxsning estetik ongi tarkibiy qismlarini ko'rishini V.G.Mozgo o'zining ilmiy ishida sodda va tushunarli qilib bergan: -" zamonaviy yoshlarning estetik ongini muvaffaqiyatli shakllantirish jarayoni mamlakatdagi ijtimoiy psixologik muhit, siyosiy va madaniy sharoitga bog'liqdir"-deydi.

Shaxsning estetik ong komponentlari (V.G.Mozgo konsepsiyasi)

Estetik hissiyot	Qadriyat larni e'zozlash	Did	Qarash	G'oyalar

Yuqoridagi konsepsiyalarga tayanib, biz musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida shaxsning qanday faoliyat turida qaysi shaxsning psixologik

xususiyatlari shakllanishini bilib olamiz. Albatta bu o'rinda musiqiy idrok xususiyatlari ham namoyon bo'ladi.

Musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchi shaxsida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish faol kechadi va jarayon bilan bir vaqtda unda musiqiy did, dunyoqarash, tafakkur shakllanadi. Bularning barchasi o'quvchida musiqiy idrokning shakllanishi bilan chambarchas bog'liq ravishda kechadi.

Buyuk kompozitor D.Shostokovich yozadi: "Musiqani tushunish (idrok etish) uchun avvalom bor uni diqqat va qiziqish bilan tinglash kerak. Vatan, do'stlik, mehnat, baxtli bolalik, jismoniy va aqliy faoliyat mavzusidagi asarlar bolalarga ijobiy ta'sir qiladi. Bola tinglagan musiqa asari haqida biror savol bermasa, unda biror hissiyot va munosabat o'zaro bog'lanmagan. Xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi".

V.I.Petrushin "Musiqiy psixologiya" asarida musiqa bilan birga musiqa idrokining xususiyatlariga ham to'xtalib o'tadi. Uning fikricha tinglovchi biror bir musiqiy asarni tinglaganda uning muallifi va kuyning nomini avval eshitgan bo'lsa, darhol aniqlay oladi. Har bir musiqa asari insonning hayoti davomida orttirgan ta'surotlari, kechinmalarini uyg'otadi. Lekin, tinglovchi musiqiy asarni tinglaganda, o'zining emas, balki , bastakor-kompozitorning kayfiyati, his tuyg'ularini musiqaning ifoda vositalari orqali anglaydi. Shularga ko'ra V.I.Petrushin "Musiqiy idrok tafakurning boshlang'ich bosqichi"-deydi. Olimning fikrlarini tahlil qilar ekanmiz musiqiy idrokning xususiyati bo'yicha quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin.

1. Musiqiy idrok eshitish sezgisi bilan bog'liqdir. Eshitish sezgisining sust rivojlanishi musiqiy idrokni ham to'laqonli bo'lmasligiga sabab bo'ladi.

2. Musiqani tinglash va idrok etishda avval egallangan taa'ssurotlarning gavdalanishi, ya'ni musiqada ifodalangan voqelik, obrazlarning muayyan tasvirlari tarzida in'ikos sifatida idrok etilishidir.

3. Musiqiy did. Did insonning yashayotgan ijtimoiy muhiti, musiqiy bilimi, umumiy madaniyati, musiqa san'atiga bo'lgan munosabatini qay darajada ekanligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

4. Musiqiy idrok tafakkurini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Musiqiy idrokni, idrok malakalarini shakllantirishda avvalombor musiqani tilini tushunish, har bir bolani o'z sevimli musiqiy asarlari doirasini paydo qilish, ularning musiqiy asarni yuqori ijod namunasi yoki yengil-yelpi xarakterini tushuna bilishi, musiqa asari mualliflariga nisbatan ijodiy kayfiyat hissini uyg'otish, ular qalbida milliy va mumtoz musiqaga nisbatan qiziqish va muhabbatni barqaror rivojlantirish musiqa tarbiyasining muhim vazifalaridandir.

Psixologiya fanida idrokni muhim xususiyatlari haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir deyiladi. Odatda insonning idrok qilish faoliyati o'zlashtirgan bilimlari, tajribasi, murakkab analitik, sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Bu holat idrok qilinayotgan fan, mavzu yoki musiqiy asarning mohiyati bog'liq muayyan faraz hosil qilish, uni amalga oshirish borasida qaror qabul qilishi yaqqol voqelik bilan tasavvur qilinayotganini, o'zaro mosligini aniqlash singari bosqichlardan iboratdir.

Yuqoridagi xususiyatlarning barchasi insonning yosh xususiyatlariga, aqliy kamolotiga, tajribasi va bilim saviyasiga bog'liqdir. Lekin to'g'ri idrok qilish uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lmog'i lozim: 1) subyektning aks ettirishi uchun zarur bo'lgan narsalar yuzasidan avvalgi o'quvi, layoqati, tasavvurlarining ko'lemi, ularning kengligi, chuqurligi; 2) jism, fan, voqyelik, muammoni o'rganishi bilan bog'liq bo'lgan maqsad, maqsad qo'ya olish 3) perspektiv faoliyatning (idrok qilish) faolligi, izchilligi va tanqidiy xususiyati. 4) idrok qilish faoliyati tarkibiga kiruvchi faol hatti-harakatlarning saqlanishi, ularning o'zaro uyg'unligi.

Muayyan sharoitda shaxs tomonidan idrok qilinadigan narsa yoki jism idrokning obyekti deb ataladi. Idrok qilinadigan narsa va uni o'rab turgan jism yoki hodisalarga nisbatan obyekt hisoblanib, obyektning atrofdagilari esa fon deyiladi. Idrokning sifati obyektning fonidan tez, to'liq va aniq ajratib olish bilan belgilanadi.

Musiqiy idrok, uning psixologik xususiyatlari tahlili shuni ko'rsatadi, u musiqiy qobiliyatlarning bir butun majmuining sintezlashgan rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda inson shaxsida shakllanadi. Musiqiy idrokni musiqiy qobiliyatlar-sezgi, eshitish, eslab qolishi, his etish, boshdan kechirish, musiqiy badiiy did, estetik ongi, dunyoqarashi, shuningdek musiqiy – nazariy bilim, malakalarsiz alohida holda o'rganish nojoizdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida musiqiy idrokni rivojlantirishning pedagogik, psixologik omillari, uning eng muhim psixologik xususiyatlari haqidagi muayyan bilimlarga ega bo'lishi musiqa o'qituvchilari faoliyatida muhim pedagogik komponentlardan hisoblanadi. Musiqani to'laqonli idrok etilishiga erishmasdan ta'lim sifati va mazmundorligi haqida fikr yuritish befoydadir.

Ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, musiqiy nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bir qator musiqiy faoliyatlarda olib boriladigan o'quv jarayoni, musiqiy idrokni shakllanishida bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu faoliyatlar ichida musiqa tinglash asosiy o'rinni egallaydi. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok bilan uyg'un holda musiqiy did, mafkura, dunyoqarash, xotira shakllanadi. Musiqiy idrok, uning psixologik xususiyati haqidagi olimlar, pedagog-psixologlarning ilmiy tadqiqotlari, ularda ilgari surilgan ilmiy fikrlar musiqiy idrokning shakllanishi juda ko'p omillarni mushtarak rivojlanishi bilan bog'liq kechishini va bu jarayonda musiqa o'qituvchisi har bir bolaning musiqani tinglash, kuylash, ijro etish, asar g'oyaviy-badiiy mazmunini to'la tushunish, anglash, u haqida o'z fikr-mulohazalarini bayon qilish, baho berish, taassurotlarni bayon qilishlarini doimiy ravishda kuzatib, diqqat va e'tiborda tutishi lozimligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of

Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7
Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com

3. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim // "Ilim ham jamiyat" jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.

4. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Milliy musiqiy an'analar va ularning shaxs komolotidagi o'rni// O'zbekiston: Turizm; Iqtisodiyot va Ekologiya // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Sam., 2009-B 376-378

5. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta'limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.

6. I.Qudratov, E.I.Abdukarimova. Xor va xorshunoslik. – o'quv qo'llanma, Samarqand davlat chet tililar institute nashriyoti – 2022 yil

7. Rubenshteyn S.L. Prinsipi i puti razvitiya psixologiya. – M.: Prosvesheniye, 1989 g.

8. Qodirov R.Musiqa psixologiyasi. Toshkent, O'qituvchi,1997 y.